

Tashqi savdo aylanmasi


2025-yil yanvar–sentyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. Tashqi savdo aylanmasi

2025-yil yanvar–sentyabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 59,8 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 11 141,8 mln AQSH dollariga yoki 22,9 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi
yanvar–sentyabr, mln AQSH dollari



TSAda eksport hajmi 26 683,6 mln AQSH dollariga (2024-yilning yanvar–sentyabr oylariga nisbatan 33,3 %ga o'sdi) va import hajmi 33 111,0 mln AQSH dollariga (15,6 % o'sish) yetdi. Hisobot davrida tashqi savdo balansi 6 427,4 mln AQSH dollari miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

**O'zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
yanvar–sentyabr, mln AQSH dollari

	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Xitoy	9 454,9	9 035,3	11 413,9
Rossiya Federatsiyasi	7 034,5	8 660,5	9 391,1
Qozog'iston	3 229,8	3 009,4	3 476,9
Turkiya	2 350,5	2 204,7	2 156,5
Koreya Respublikasi	1 699,1	1 476,1	1 291,1
Afg'oniston	615,3	762,1	1 149,8
Fransiya	658,8	928,5	1 103,7
Hindiston	507,8	689,3	961,1
Germaniya	784,2	859,9	957,6
BAA	475,8	476,8	937,8
Turkmaniston	830,3	916,4	750,0
AQSH	441,6	681,0	719,1
Belarus	449,5	506,8	693,6
Qirg'iz Respublikasi	753,8	586,8	672,8
Tojikiston	545,4	485,8	571,3
Pokiston	283,4	309,2	397,3
Eron	378,4	359,1	393,3
Italiya	384,3	309,8	343,2
Niderlandiya	172,3	194,3	309,9
Polsha	309,4	278,3	286,0

O'zbekiston jahonning 206 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (19,1 %), Rossiya (15,7 %), Qozog'iston (5,8 %), Turkiya (3,6 %) va Koreya Respublikasi (2,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 74,7 % ni tashkil etib, unda asosan sanoat tovarlari (10,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,7 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (5,7 %) va har xil tayyor mahsulotlar (4,7 %) hissasi yuqori bo'ldi.

II. Eksport hajmi

yanvar–sentyabr


Tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Jami eksport	20 013,3	26 683,6	112,8	133,3	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 448,9	2 046,9	112,5	141,3	7,2	7,7
Ichimliklar va tamaki	102,6	139,0	114,5	135,5	0,5	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	236,5	211,0	103,4	89,2	1,2	0,8
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	1 010,9	1 119,9	148,9	110,8	5,1	4,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	27,6	45,9	337,8	166,2	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 303,2	1 522,5	133,8	116,8	6,5	5,7
Sanoat tovarlari	3 186,9	2 865,8	103,8	89,9	15,9	10,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	884,7	764,1	93,8	86,4	4,4	2,9
Turli xil tayyor buyumlar	840,0	1 264,3	91,1	150,5	4,2	4,7
Boshqa tovarlar	5 831,9	9 942,1	102,9	170,5	29,1	37,3
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<i>5 793,2</i>	<i>9 899,8</i>	<i>102,8</i>	<i>170,9</i>	<i>28,9</i>	<i>37,1</i>
Xizmatlar	5 140,1	6 762,1	132,9	131,6	25,7	25,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksport hajmi

2025-yil yanvar–sentyabr, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2025-yilning yanvar–sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (12,2 %), Xitoy (5,2 %), Qozog'iston (4,0 %), Afg'oniston (3,8 %), Turkiya (3,1 %), Fransiya (2,6 %), BAA (2,1 %), Qirg'iz Respublikasi (1,6 %), Tojikiston (1,5 %) va Pokiston (1,1 %) kabi davlatlar bo'ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 37,2 % ni tashkil etdi.

XSST bo'yicha eksport tovarlar tarkibi
2025-yil yanvar-sentyabr

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 046,9	141,3
05	Sabzavotlar va mevalar	1 511,0	142,4
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	400,2	153,3
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	55,3	187,5
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	22,2	123,1
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	14,6	80,6
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	13,4	116,6
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	11,7	33,7
00	Tirik hayvonlar	9,3	154,8
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	6,5	85,4
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	2,8	222,2
1	Ichimliklar va tamaki	139,0	135,5
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	73,7	116,5
11	Ichimliklar	65,3	166,1
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	211,0	89,2
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	63,1	67,5
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	53,2	97,7
28	Metall rudalari va metall parchalari	29,2	111,2
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	26,7	118,5
25	Qog'oz massasi va makulatura	20,8	85,1
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	15,5	120,6
23	Tabiiy kauchuk	1,4	88,1
24	Probka va yog'och-taxtalar	1,0	137,4
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	1 119,9	110,8
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	546,2	115,4
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	456,4	98,9
35	Elektr toki	114,8	155,1
32	Ko'mir, koks va briketlar	2,6	105,5
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	45,9	166,2
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	45,8	166,6
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,1	118,2
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 522,5	116,8
52	Noorganik kimyo moddalari	861,2	114,7
56	O'g'itlar	339,4	140,8
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	156,5	85,5
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	58,3	154,1
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	33,1	125,5
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	24,6	130,7

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	20,6	134,7
51	Organik kimyo moddalari	14,7	127,6
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	14,2	77,1
6	Sanoat tovarlari	2 865,8	89,9
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 155,8	76,0
68	Rangli metallar	1 086,2	95,4
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	218,8	135,2
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	157,7	140,9
67	Cho'yan va po'lat	140,4	90,3
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	38,7	104,5
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	28,9	93,2
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	22,3	138,6
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	16,8	120,8
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	764,1	86,4
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham) shu jumladan:	220,0	76,2
784	<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	186,7	94,1
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	209,0	138,1
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	119,0	75,5
79	Boshqa transport uskunalar	73,2	59,8
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	60,0	109,1
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	46,0	74,4
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalar	27,6	70,5
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	5,9	95,6
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	3,5	155,7
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	1 264,3	150,5
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	752,4	113,2
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	456,6	373,7
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	15,9	129,6
85	Poyabzal	14,7	99,4
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	14,3	108,8
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	5,1	102,1
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	4,9	68,3
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	0,6	64,3
9	Boshqa tovarlar	9 942,1	170,5
97	Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	9 899,8	170,9
93	Maxsus operatsiyalar va turlari bo'yicha tasniflanmagan tovarlar	42,3	109,5


2025-yil yanvar–sentyabr oylarida 1 606,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,5 % yoki 111,5 ming tonnaga oshdi.

Meva va sabzavotlar eksporti
yanvar–sentyabr

	2024-yil		2025-yil	
	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari
Jami	1 494,8	1 044,1	1 606,3	1 454,7
mevalar va rezavorlar	349,5	384,2	456,1	503,0
uzum	108,7	96,0	149,6	144,4
shaftoli	103,0	96,5	111,5	105,1
quritilgan uzum	23,7	34,7	70,0	92,6
gilos	34,5	73,4	34,3	72,5
o'rik	64,8	62,2	61,3	46,9
quritilgan olxo'ri	14,9	21,3	29,4	41,5
sabzavotlar	607,8	160,9	504,4	173,0
piyoz	308,7	60,1	288,0	81,3
karam	163,3	43,0	127,6	49,3
pomidor	37,9	33,8	32,8	26,3
sabzi	80,3	17,0	40,7	8,4
bodring	5,2	4,0	6,1	4,3
rediska	12,3	3,0	9,1	3,5
tarvuz va qovun	149,1	35,4	229,2	56,5
yeryong'oq va yong'oqlar	13,1	31,9	17,7	45,4
mosh	41,0	31,3	36,4	34,9
boshqa	334,2	400,4	362,5	641,9


2025-yil yanvar–sentyabr oylarida 1 454,7 mln AQSH dollariga teng meva va sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 39,3 % ga o'sdi va jami eksportdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi



2025-yil yanvar–sentyabr oylari yakuni bo'yicha 1 846,0 mln AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 6,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 16,6 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (50,8 %), ip kalava (29,0 %) asosiy ulushni egallagan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

2025-yil yanvar–sentyabr oylarida xizmatlar eksporti hajmi 6 762,1 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 25,3 % ini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 31,6 % ga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (52,9 %), transport (31,7 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (7,3 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. Import hajmi

Ushbu davrga kelib import hajmi 33 111,0 mln AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (33,9 %), sanoat tovarlari (15,9 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar–sentyabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 529,1 mln AQSH dollariga ko'paydi va 29 465,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 3 646,0 mln AQSH dollariga yetdi.


O'zbekiston Respublikasining importi tarkibi
yanvar–sentyabr

XSST tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2024 y	2025 y	2024 y	2025 y	2024 y	2025 y
Jami import	28 639,5	33 111,0	106,0	115,6	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 649,0	3 070,3	104,2	115,9	9,2	9,3
Ichimliklar va tamaki	175,3	251,0	124,0	143,2	0,6	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	801,0	1 094,9	96,4	136,7	2,8	3,3
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	3 066,6	2 627,5	161,4	85,7	10,7	7,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	251,1	387,5	81,5	154,3	0,9	1,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 474,4	4 085,1	96,9	117,6	12,1	12,3
Sanoat tovarlari	4 301,1	5 271,8	95,8	122,6	15,0	15,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	10 116,1	11 226,9	98,1	111,0	35,3	33,9
Turli xil tayyor buyumlar	1 055,0	1 220,3	102,6	115,7	3,7	3,7
Boshqa tovarlar	46,3	229,7	72,8	495,8	0,2	0,7
Xizmatlar	2 703,7	3 646,0	149,6	134,9	9,4	11,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida importi hajmi
2025-yil yanvar–sentyabr, mln AQSH dollari



2025-yil yanvar–sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi 175 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar, jumladan, Xitoy (30,3 %), Rossiya (18,6 %), Qozog'iston (7,3 %), Turkiya (4,0 %), Koreya Respublikasi (3,8 %), Germaniya (2,6 %) va Hindiston (2,5 %) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.


XSST bo'yicha import tovarlar tarkibi
2025-yil yanvar–sentyabr

XSST kod	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 070,3	115,9
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	693,6	106,3
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	589,5	172,4
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	384,9	80,4
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	340,1	114,7
05	Sabzavotlar va mevalar	330,2	115,1
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	240,7	145,5
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	204,6	98,4
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	165,9	150,9
00	Tirik hayvonlar	87,5	106,0
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	33,3	126,1
1	Ichimliklar va tamaki	251,0	143,2
11	Ichimliklar	160,0	124,0
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	91,0	196,5
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 094,9	136,7
24	Probka va yog'och-taxtalar	459,1	142,8
28	Metall rudalari va metall parchalari	261,6	119,2
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	80,2	132,4
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	74,1	210,4
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	67,6	146,9
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	67,4	127,0
25	Qog'oz massasi va makulatura	45,1	114,2
23	Tabiiy kauchuk	39,4	155,9
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,4	90,6
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	2 627,5	85,7
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 466,0	95,9
334	<i>Benzin (avtomobillar uchun)</i>	1 148,9	101,8
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	932,3	70,3
32	Ko'mir, koks va briketlar	146,8	126,6
35	Elektr toki	82,4	85,6
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	387,5	154,3
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	349,8	162,3
43	Hayvonlar va o'simliklarning qayta ishlangan moylari va yog'lari, hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	37,0	107,2
41	Hayvonlarning yog'lari	0,8	73,9
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 085,1	117,6

XSST kod	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 457,6	113,5
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	780,9	133,5
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	552,3	114,0
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	411,3	106,2
51	Organik kimyo moddalari	275,3	132,5
52	Noorganik kimyo moddalari	235,9	116,1
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	225,0	111,4
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	89,9	120,1
56	O'g'itlar	56,9	124,3
6	Sanoat tovarlari	5 271,8	122,6
67	Cho'yan va po'lat	2 342,3	125,5
69	Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	784,2	132,7
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	432,2	103,4
62	Rezina buyumlari	421,0	134,5
66	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	336,5	113,0
64	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	331,3	117,3
63	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	329,4	128,0
68	Rangli metallar	293,0	107,4
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,8	123,3
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	11 226,9	111,0
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	2 557,6	108,4
781	<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	807,3	81,9
784	<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	1 287,3	140,8
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	2 285,3	122,5
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 826,7	122,5
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 708,2	114,2
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1 019,7	116,6
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalar	744,1	97,0
79	Boshqa transport uskunalar	572,1	85,6
	<i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i>	409,9	81,8
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	324,4	87,7
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	188,8	83,7
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	1 220,3	115,7
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	409,9	119,8
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	355,4	107,1
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	145,7	125,5
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	143,7	130,8
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	97,4	106,7
85	Poyabzal	32,4	106,2
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	18,9	112,4
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	16,8	102,0
9	Boshqa tovarlar	229,7	495,8
97	Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	229,7	495,8

2025-yilning yanvar–sentyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 3 646,0 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 11,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 34,9 % ga oshdi.

Xizmatlar importi tarkibi
2025-yil yanvar–sentyabr, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibida asosiy ulush safarlar (51,1 %), transport xizmatlari (20,3 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (10,6 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (6,6 %) hamda boshqa xizmatlar (11,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

IV. Uslubiy ma'lumotlar

Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash imkonini beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Bunda, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasi ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan belgilangan turdagi tovarlar bo'yicha statistika kuzatuvlari tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar manbasi hisoblanadi. Xizmatlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.



V. Aloqador boshqa havolalar

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hududlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga mas'ul:

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.

Elektron pochta: info@stat.uz

Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1181)

